

KOMPETENTLI YONDASHUV TA'LIMNI YANGILASHNING OMILI.

*Azimova Firuza Kamolovna - Buxoro davlat texnika universiteti
o'qituvchisi .*

200100, Buxoro sh. Q. Murtazoev ko'chasi 15-uy.

E-mail: firuzaaazimova1993@gmail.com

*Sadullaev Shuhrat. Narzulloyevich - Buxoro davlat texnika universiteti
o'qituvchisi. 200100, Buxoro sh. Q. Murtazoev ko'chasi 15-uy.*

E-mail: shuxatsadullayev025@gmail.com

Anotatsiya: Respublikamiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi mutaxassislardan doimiy bilimlarni yangilash, mustaqil izlanish va kasbiy kompetentligini oshirishni talab etadi. Ushbu maqolada ta'lim tizimining rivojlanishi, kasbiy tayyorgarlik va pedagogik kompetentlik masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tamoyillari, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlar asosida mutaxassislar tayyorlash jarayoni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash, kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuv, pedagogik mahorat, mustaqil fikrlash, texnologik taraqqiyot, uzluksiz ta'lim, ta'lim samaradorligi.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashayotganligi, ilm-fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, bilimli, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, tafakkurli, malakali, shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlashni ko'zlaydi. Globallashtirish sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslasha olishi hamda mamlakatning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Texnika va texnologiya jadal rivojlanib borayotgan jahon hamjamiyatida har qanday davlatning mavqei aholining turmush darajasi, siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ta'lim sohasining rivojlanishiga ham bevosita bog'liq. Vatanimizda va butun dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan kelib

chiqqan holda ta'lim mohiyati hamda unga bo'lgan e'tibor yangilanib bormoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim samaradorligining rivojlanish sur'atini yanada takomillashtirish, yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlardan samarali foydalanish hamda ta'lim muassasalari uchun raqobatbardosh bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni yetkazib berish bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning ijodiy fikrlashi, mustaqilligi, faollik munosabatlarining boyib borishi, dunyoqarashlarining o'sishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi omillar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari, xususan, o'qituvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim hisoblangan kasbiy bilim, ta'lim sifati, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlanish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Bo'lajak mutaxassislar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi ko'nikmalarni o'zida mujassam etadi. Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak mutaxassislardan zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lishi hamda yangi bilimlarga intilishini talab etadi. Bu esa ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning mustaqil izlanishi, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qilishga hamda ularga ijodiy yondashishga o'rgatish zaruriyatini tug'diradi.

Shuning uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining bosh vazifasi bo'lib, bunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini hamda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Insonning butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim jarayonidan o'tishi shaxsning intellektual rivojlanishining negizi sifatida uning hayot tarzini belgilovchi omil hisoblanadi.

Kasbiy tarbiya masalalari uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham aks etgan. Tarixiy meroslarimizda kasbga yo'naltirilganlik g'oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi haqida ko'plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Pedagogik kompetentlik bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar – E.M.Borisova, L.S. Vigotskiy, P.Ya.Galperin, E.F.Zeer, N.G.Kovalevskaya, A.N.Leont'ev, M.I.Lukyanova, A.K.Markova va boshqalar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularni kasbga yo'naltirishning psixologik asoslari haqida qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Shu bilan birga, shuni ham qayd etish kerakki, mutaxassisning kasbiy kompetentligini tarbiyalash masalalari tadqiqot obyekti sifatida maktab o'qituvchisini yoki oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini tayyorlash va malakasini oshirish doirasida ko'rib chiqiladi. Jumladan, o'qituvchini didaktik (M. Ochilov), psixologik-pedagogik (E. G'oziev), umum-pedagogik (N. N. Azizxo'jaeva, O. A. Abdullina), ijodiy (V. A. Kan-Kalik) tayyorlashning ahamiyati va vazifalari o'rganilgan. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, zamon va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni hal etishda o'zi o'zlashtirgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, mavjud vaziyatga mos keladigan metodlarni tanlab qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy nigoh bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bilim olish kompetentligiga «ijtimoiy jamiyat madaniyatida mavjud bo'lgan qoidalar, qadriyatlar, bilimlarni egallash usullari tizimiga mos keladigan bilim olish faoliyatining individual darajasi» deb ta'rif beriladi. Ushbu kompetentlik shaxsning hayotiy faoliyatidagi tashabbuskorlik xususiyatlariga asoslanadi. Ta'lim oluvchi oldida shunchaki fanlarning asoslarini o'rganish emas, balki, fanni o'rganish jarayonida o'zining bilim egallash imkoniyatlarini kengaytirish va murakkablashtirish vazifasi turadi. Zero, shunchaki bilimli odam emas, balki bilimlarni egallash, mustahkamlash va ularni amalda qo'llay olish mexanizmi shakllangan inson kuchliroq bo'ladi. Bilim olish kompetentligining asosida umumiy o'quv ko'nikmalari yotadi. Kompetentli ta'lim sifatini oshirishning muhim jihatlaridan biri - masalalarni hal etish jarayonida kerakli axborotni izlab topish, qayta ishlash va undan unumli foydalana bilish, muammoni aniqlash hamda uni hal eta olish va boshqa shu kabi ko'nikmalardan iborat bo'lgan umumiy o'quv ko'nikmalarini maqsadli ravishda rivojlantirish hisoblanadi. Kompetensiya insonda murakkab va oldindan ko'ra bilib bo'lmaydigan turli xil ishchi vaziyatlarda yo'nalish olish qobiliyatini rivojlantirish, o'z faoliyati natijalari haqida tasavvurga ega bo'lish, shuningdek, ular uchun mas'uliyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvning shakllanishida zamonaviy "bilimlar iqtisodiyoti"ning obyektiv talablari mavjud bo'lib, bunda muvaffaqiyatli faoliyat uchun faqat bilimlarning o'zi emas, balki hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilishda namoyon bo'ladigan umumlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, chet tilida muloqotga qodirlik, axborot texnologiyalari sohasida tayyorgarlik tobora muhim va samarali omil hisoblanadi.

B. B. Gershunskiy kompetentlikni "savodxonlik", "ta'lim olganlik", "madaniyat", "mentalitet" kabi tushunchalar bilan o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogning kasbiy kompetentligiga oid tadqiqotlarda "kasbiy kompetentlik" tushunchasi turlicha talqin qilinadi: bilim va

kasbiy muloqot malakalari (I. A. Zimnyaya, N. V. Kuzmina, L. M. Mitina, N. F. Talizina); faoliyatning muayyan turlarini mustaqil bajarishga tayyorlik, kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z mehnati natijalarini baholash malakalari (E. F. Zeer, N. V. Kuzmina, A. K. Markova, V. A. Slastenin, A. I. Shcherbakov), kasbiy o'sish va malaka oshirishga qodirlik, o'zini kasbiy mehnatda namoyon qilish (B. G. Gershunskiy, V. A. Slastenin, A. K. Markova) kabi jihatlar tadqiq qilingan. Intellectual kompetentlik deganda, bilimlarni qo'llay olishning o'ziga xos turi, ya'ni muammolarni hal etishda, shu jumladan muammoli vaziyatlarda ham, samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ta'minlay oladigan darajadagi kompetentlik tushuniladi. Tadqiqotchilar kompetentli odamlarga xos bo'lgan bilimlar elementlari sirasiga quyidagilarni kiritadilar: turli-tumanlik, aniq va o'zaro bog'liqlik, moslashuvchanlik, muhim jihatlarni tez ajrata olish, turli vaziyatlarda amalda qo'llay olish, muhim tayanch elementlarining mavjudligi, biror ishni bajara olish bo'yicha amaliy bilimlarga egalik. Intellectual-korporativ kompetentlik «murakkab psixologik xususiyat bo'lib, korporativ tizim sifatida kompaniya tomonidan masalalarni maqbul ravishda hal etishdagi kabi ko'nikma va malakalar to'plamidan iborat bo'ladi». Ular qatoriga - masalalarni to'g'ri qo'ya bilish va loyiha oldi tadqiqotlarini amalga oshirish, axborot texnologiyalarini loyihalashtirish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish, kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish kabi ko'nikmalarni kiritish mumkin. N. N. Mankoning fikricha, pedagogning texnologik kompetentligi - mavjud pedagogik tizim obyektlarini o'zgartirish faoliyatida qo'llaniladigan kreativ-texnologik bilimlar, qobiliyatlar va stereotiplar tizimidir. «Bilim olish faoliyatining amaliy va intellektual mexanizmlarini takomillashtirish, didaktik vositalar yordamida o'qitish faoliyatining tashqi rejasini tuzish, o'quv harakatlarini rejalashtirish va boshqalar boshqaruv hamda shakllantirishni tartibga solishning texnologik-pedagogik asoslari hisoblanadi. Bu umumiy kasbiy kompetentlikning maxsus bo'limi sanaladi». Psixologik kompetentlik, L. V. Andropovanning fikricha, - mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish imkonini beradigan o'ziga xos psixologik (shaxsiy) quroli, uning psixologik madaniyatining bir qismidir. O'qituvchining psixologik kompetentligi ikkita blokdan iborat: intellektual (kognitiv) va amaliy (harakatli). Intellectual blokka psixologik bilim va tafakkur, amaliy blokka psixologik ko'nikma va malakalar kiritilgan. Psixologik-pedagogik kompetentlik deganda, M. I. Lukyanova fikricha, pedagogik faoliyatda ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqotni o'rnatishga yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsning muayyan xislatlari tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Uzbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»/ Barkamol avlod - Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. - T.: «Shark», 1997.
2. 31-61 b.
3. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch». T. «Ma'naviyat». 2008.- 63 b

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. - T.: Uzbekiston, 2017. - 488 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Tankidiy taxlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik koidasi bulishi kerak. - T.: Uzbekiston, 2017. - 104 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: Uzbekiston, 2016. - 56 b.
7. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Karori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida" 20.04.2017 y., PK-2909, Uzbekiston Respublikasi konun xujjatlari tuplami, 2017 y., 18- son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.
8. Feruza Kamolovna Azimova: "**Science and Education**" **Scientific Journal** O'zbekistonda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishning tashkil etilishi tahlili/ **January 2023 / Volume 4 Issue 1**